**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISER NAVOIY NOMIDAGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tarixshunoslik va manbashunoslik**

**KAFEDRASI**

# Abu Rayxon Beruniyning «Qonuni Ma’sudiy asari tarixiy manba sifatida»

**Bitiruv malakaviy ishi.**

**TalabaUmarova Zuxro**

**Ilmiy raxbar ass. H. Abriyev**

## Mundarija:

**Kirish……………………………………………………4-7**

**I bob. Abu Rayhon Beruniy ilmiy faoliyati va uning astronomiya faniga qo'shgan xissasi.**

**1.1.** Abu Rayhon Beruniy o'rta asrdagi buyuk qomusiy olimlarning peshqadami………………………………………………………..8-13

**1.2.** "Qonuniy Ma'sudiy" asari astronomiya tarixini o'rganishda eng muhim manba……………………………………………14-21

**1.3.** Beruniyning "Qonuniy Ma'sudiy" asari osmon jismlarini o'rganishdagi o'rni……………………………………………22-26

**II bob. Jahon ilm – fani rivojida Beruniyning "Qonuniy Ma'sudiy" hamda boshqa asrlaning tarixiy ahamiyati.**

**2.1.** Beruniynig "Qonuniy Ma'sudiy" asarining tarixiy ahamiyati…………………………………………………………..27-32

**2.2.** Abu Rayhon Beruniy tarixiy manbashunoslikka qo'shgan xissasi…………………………………………………………..33-57

**Xulosa…………………………………………………..58-59**

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar……………………..60-62**

## Kirish.

Istiqlol yillarida ko’hna tariximiz, boy madaniy-ma’naviy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, urf-odat va an’analarimiz qayta tiklandi, aziz-avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo’q bo’lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag’rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg’usi yuragimizning tub-tubidan o’rin oldi.

Darhaqiqat, mustaqillik tufayli biz o’zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O’zbekistonning bor bo’y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoniga ega bo’ldik. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy e’tibori tufayli mustaqillik yillarida jahon ilm-fani, madaniyati rivojiga, insoniyat ma’naviyati takomiliga ulkan hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimizning biz uchun ardoqli bebaho merosini o’rganish, shu bilan birga, ularning ibratli hayoti va ijodi, benazir kashfiyotlarining jahonshumul ahamiyati haqidagi bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan harakat bugun o’z samarasini bermoqda.

O’tgan davr ichida, Ahmad Farg’oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek kabi o’nlab allomalarimizning xalqaro miqyosda o’tkazilgan tavallud sanalari, ularning qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasidagi ulkan ishlar xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitibgina qolmasdan, buyuk o’tmishimizdan meros bebaho ma’naviy mulkning jahon miqyosida yanada chuqurroq tushunilishi va keng e’tirof etilishiga xizmat qildi.

Ayniqsa, o’rta asrlarda yurtimiz zaminidan o’nlab buyuk olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiat va jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O’rta Osiyo xalqlarining emas, balki butun dunyo xalqlarining ma’naviy mulkidir.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 2014 yilning 15-16 may kunlari bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiya O'rta asr Sharq ilm-fani taraqqiyoti, Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy merosi va uning bugungi sivilizasiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalarini yoritishga qaratilgani bilan dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.

Konferensiyada nufuzli xalqaro tashkilotlarning rahbarlari, ellikka yaqin mamlakat, shu jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Misr, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Rossiya, Ozarbayjon kabi davlatlardan taniqli olimlar, oliy ta'lim muassasalari professorlari, ilmiy markazlar va institutlar mutaxassislari, ekspertlar ishtirok etgani, ularning har biri ushbu anjuman, yurtboshimizning unda so'zlagan nutqi haqida bildirgan va bildirayotgan fikr-mulohazalari aynan shundan dalolat beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov konferensiyaning bosh maqsadi haqida to'xtalib bunday deb ta'kidladi: "...O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizasiya tarixida tutgan o'rni va roliga baho berishdan iborat.

Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug' allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhim deb hisoblayman"1.

IX-XII asrlar o'z mazmuni, salmog'i jihatidan O'rta Osiyo uyg'onish davri sifatida tarixga kiradi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarida dunyoviy ma'rifatga intilish, bu yo'lda o'tmish va dunyodagi davlatlarning madaniyati

[1] Каримов И.А. "Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти" мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқ. Халқ сўзи, 2014 йил 16 май.

yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirishga e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O’rta asrlarda Xorazm Ma’mun akademiyasi kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo’lgan va unda yuzdan ortiq allomalar, iste’dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ularga Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo’jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarni misol keltirish mumkin.

Yurtimizda YuNESKO ishtirokida Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi keng nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan ulkan e’tiborning yorqin namunasidir. Hozir bu qadimiy va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi, uning o’ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o’rganish bo’yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

IX- X asrlardagi boshqa tarixchilardan farqli o’laroq, O’rta Osiyo, xususan, Xorazmning qadimgi tarixiga oid eng ishonchli va noyob, bizning davrimiz uchun ham eng qimmatli asarlarni yozgan olim vatandoshimiz, Xorazm Ma’mun akademiyasining gultoji bo’lgan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Bu buyuk olim to’g’risida eng tugal ta’rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: “Dunyoda tog’lar ko’p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho’qqi borki, bu cho’qqini insoniyat hyech qachon zabt etolmaydi. Bu – Beruniydir”.

Beruniy o’zining birinchi astronomik tajribalarini 16 yoshida Kat shahrida boshlagan. Beruniy Jurjon saroyida xizmat qilgan davrida uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari yaratiladi. Bu asar muallifning ko’p qirrali ilm sohibi ekanini namoyish etdi va unga juda katta shuhrat keltirdi. Beruniy Jurjonda 10 dan ortiq yirik asarlarini bitishga muyassar bo’lgan. Beruniy 1005 yilda vatani Xorazmga qaytadi.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo’lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o’ziga xos yangi g’oyalarni

taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo’shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo’lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas1.

Beruniy shunday degan edi. «Mening hamma istaklarim, butun vijudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o’zim uchun eng ulug’ baxt deb bilaman».

«Beruniy… qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan ko’ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir» degan edi akademik I.Yu.Krachovskiy.

Yoshi oltmishlarga yaqinlashib qolgan Beruniy o’zining astronomiya sohasidagi tadqiqotlariga yakun yasab, yirik bir asar yaratishni niyat qildi. 1036 yil oxiri yoki 1037 yil boshida yozib tugallangan «qonuni Ma’sudiy» ana shu maqsadning samarasi o’laroq dunyoga keldi.

---

[1] Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқ. Халқ сўзи, 2014 йил 16 май.

## 1.1. Abu Rayhon Beruniy o’rta asrdagi buyuk qomusiy olimlarning peshqadami.

IX- X asrlardagi boshqa tarixchilardan farqli o’laroq, O’rta Osiyo, xususan, Xorazmning qadimgi tarixiga oid eng ishonchli va noyob, bizning davrimiz uchun ham eng qimmatli asarlarni yozgan olim vatandoshimiz, Xorazm Ma’mun akademiyasining gultoji bo’lgan qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Bu buyuk olim to’g’risida eng tugal ta’rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: “Dunyoda tog’lar ko’p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho’qqi borki, bu cho’qqini insoniyat hyech qachon zabt etolmaydi. Bu – Beruniydir”1.

Abu Rayhon Beruniy milodiy 973 yilda Xorazmning o’rta asrlardagi markazi Kat shahri atrofida dunyoga keladi.

Beruniy yoshligidan noyob iste’dod egasi bo’lib, ilm-fanga juda qiziqadi. Ota-onadan erta yetim qolgan Beruniy mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qo’lida tarbiyalanadi va ta’lim oladi. Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq zamonasining taniqli olimi bo’lgan. U o’zining matematika hamda astronomiyaga doir ilmiy ishlari va kashfiyotlari bilan Xorazmdagina emas, balki ko’pgina xorijiy mamlakatlarda ham mashhur bo’lgan.2

Kat shahri Urganch hokimi tomonidan bosib olingandan so’ng Beruniy bir qancha vaqt Jurjonda va Reyda yashaydi. 1004 yilda Beruniy vataniga qaytib keladi. O’sha vaqtdagi Xorazm hukmdori Ali ibn Ma’mun tog’asi Abu Nasr ibn Iroqning taklifi bilan Abu Rayhon Beruniyga “Majlisi ulamo va orifin” ya’ni “Fanlar akademiyasi”ni tuzishni topshiradi. U uzoq yillar shu ilmiy dargohga rahbarlik qiladi, uning qo’l ostida Abu Nasr Iroq, Ibn Sino, Mas’udiy kabi 300dan ortiq olimlar fanning turli sohalarida ijod qildilar.

Mahmud G’aznaviy Xorazmni egallagach (1017y) Beruniy o’z ilmiy faoliyatini G’azna shahrida davom ettirgan. Hindistonda bir necha bor safarlarda bo’lgan. Ulug’ mutafakkir 1048 yilda G’azna shahrida vafot etadi.

---

[1] Ўрта асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш.Салиҳов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 156 б.
[2] П.Г.Булгаков. Абу Райҳон Беруний. Т.”Фан” 1973, 8-бет.

Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’riflaydi. Bu ulug’ zot qanchalar ulkan olim bo’lganligini, buyuk tafakkurga ega ekanligini tasavvurga sig’dirib bo’lmaydi. Abu Rayhon Beruniy o’rta asrlardagi buyuk qomusiy olimlarning peshqadami edi. Uning bu qadar buyukligi o’sha davrning deyarli barcha fanlariga qo’shgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo’ladi. Beruniyning olimlik salohiyatiga mashhur sharqshunos tadqiqotchilar «...uning qiziqqan ilm sohalaridan ko’ra, qiziqmagan sohalarini sanab o’tish osondir», deb baho bergan edi.

Shuningdek, bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo’lsa-da, shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng zamonaviy laboratoriyalardagina aniqlanishi mumkin bo’lgan xossalari shu darajada aniq berilgan. Bundan aql lol qoladi. Holbuki, mineralogiya Abu Rayhon Beruniy shug’ullangan o’nlab fan sohalarining biri edi, xolos.

Beruniy Xorazm, Kat, Gurganj bilan bog’liq joylar, shahar va qishloqlarning jo’g’rofiy kengliklarini va ular orasidagi masofalarni aniqlab, ushbu joylar tushirilgan Yer kurrasi modelini yasadi. Bu insoniyat tarixida ilk bor yaratilgan yarim shar ko’rinishidagi o’ziga xos globus edi.

Beruniy o’z tadqiqotlarida hozirgi Amerika qit’asining mavjudligiga ham ishora qilgan allomadir. Abu Rayhon Beruniyning buyukligi o’sha davrning deyarli barcha fanlariga qo’shgan betakror ilmiy merosida yanada yaqqol namoyon bo’ladi.

Mashhur sharqshunos olim A.M.Beleniskiy Beruniyning “Mineralogiya” asarini arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Mana shu tarjima jarayonida bu asar ta’sirida A.M.Beleniskiy turli minerallar to’g’risida 14 ta ilmiy maqola yozgan. Olimning ta’kidlashicha, bu asar bundan ming yil avval yozilgan bo’lsa-da, shunchalar mukammal bitilganki, minerallar va ularning hozirgi eng

zamonaviy laboratoriyalardagina aniqlanishi mumkin bo’lgan xossalari shu darajada aniq berilgan1. Bundan aql lol qoladi.

Abu Rayhon Beruniy 973 yili Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tavallud topgan va bolalik va o’spirinlik yillarini o’z vatanida o’tkazib, o’sha yerda turli ilmlarni o’rgandi va yoshligidanoq olim sifatida shakllandi. Beruniy dastavval zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo’lida ta’lim oladi. U yoshligidanoq olim bo’lishga intilib, haqiqiy ilm bir necha tillarni bilishni taqozo etishini juda erta anglab yetgan va shu bois o’zining ona tilidan tashqari arab, sug’diy, fors, suryoniy, yunon tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini chuqur o’rgangan.

Beruniy o’zining birinchi astronomik tajribalarini 16 yoshida Kat shahrida boshlagan. Beruniy Jurjon saroyida xizmat qilgan davrida uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari yaratiladi. Bu asar muallifning ko’p qirrali ilm sohibi ekanini namoyish etdi va unga juda katta shuhrat keltirdi. Beruniy Jurjonda 10 dan ortiq yirik asarlarini bitishga muyassar bo’lgan. Beruniy 1005 yilda vatani Xorazmga qaytadi.

Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma’mun ibn Ma’mun Beruniyni o’z saroyida katta izzat-hurmat bilan qabul qilgan. Beruniyning ushbu turlicha fanlardagi ijodi va muvaffaqiyati uning tom ma’noda qudratli shaxs va cheksiz bilim sohibi ekanligini ko’rsatdi va uning nomini mangulikka muhrladi.

Tarixiy ildizlari uch ming yildan chuqurroq qadimiyatga borib taqaluvchi o’zbek davlatchiligi ko’p marotaba yuksalishlar va evrilishlar davrini boshdan kechirgan. Eng qadimgi davlat uyushmalarining shakllanishi natijasida taraqqiy topgan davlatlarning vujudga kelishi, bu davlatlarning G’arb va Sharq mamlakatlari bilan “Buyuk Ipak yo’li” orqali olib borgan aloqalari samarasi o’laroq Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining gurkirab rivojlanishi omillari ilm-fan ahlini ko’pdan beri qiziqtirib keladi. Markaziy Osiyo, shu

---

[1] Беруний, Абу Райхан. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). (Перевод: А.М. Беленицкого. Под редакция проф. Г.Г. Леммлейна, проф. Х.К. Баранова и А.А. Долининой. Статьи и примечания А.М.Беленицкого и Г.Г. Леммлейна). Ленинград., 1963 г. 404-410 с.

jumladan, O'zbekiston insoniyat sivilizasiyasi qaror topgan mintaqalardan biri sifatida o'z o'rni va salohiyatiga ega hudud sanaladi.

O'z davrida hozirgi zamon ilm-fanining ilk poydevorini qo'ygan va rivojlantirgan ajdodlarimiz qadim-qadimlardan G'arb Sharq xalqlari yaratgan tafakkur, g'oya, kashfiyotlar va donishmandlikni sinchiklab o'rganganlar. Shuning uchun ham o'rta asrlarda G'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan iboraning paydo bo'lishi ham bejiz emas.

Qadimgi Turonda ilmiy, ruhiy va ma'naviy quvvat shu darajada kuchli ediki, buni turli bosqinlar, tajovuzlar, yovuzliklar yo'q qila olmadi. Ana shunday sharoitda ham ajdodlarimiz tarixan shakllangan boy madaniy-ma'naviy va ilmiy merosni milliy qadriyat va urf-odatlarni saqlab qolganlar va uni yanada boyitib rivojlantirganlar.

Biz bu dorilomon kunlarda yurtning ozodligi va xalqning baxt-soadati, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda ulkan meros qoldirgan ajdodlarimizning muqaddas nomlarini g'urur bilan tilga olamiz. Chunki, ular bizga qoldirgan ilmiy meros–ma'naviy mulk bo'lib, bu boy meros butun bir bashariyat manafaatlarini o'zida aks ettiradi1.

O'tmish tariximiz sahifalariga nazar tashlasak, buyuk ajododlarimiz nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo mamlakatlari tamaddunini o'rgangan va ularning tarixi va madaniyatiga hurmat va ehtirom bilan o'z munosabatlarini yozib qoldirgan asarlari bizgacha yetib kelgan. Demak, ilm-fan va madaniyat rivoji xalq tanlamaydi, balki xalqlarninng o'zaro hamjihatligini ta'minlashda muhim tarbiyaviy omil vazifasini o'taydi.

Buyuk sharq allomalarining ilmiy merosi mazmuni va ko'lami shundaki, bu meros bugun ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmasdan, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" nomli asari Hindiston to'g'risida barcha zamonlarda yozilgan eng mukammal asar

---

[1] Беруний А.Р. Феруза: (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоялар). – Т.: А. Қодирий номидаги "Халқ мероси" нашр. – 1993. – 94 б.

sifatida hozir ham o’z qimmatini yo’qotmagan va bugungi kunda tadqiqotlar uchun manba bo’lib xizmat qilayotgani buning yaqqol isbotidir.

Buyuk ajdodarimiz o’z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizasiyasiga munosib hissa qo’shganlar. Sharq va G’arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg’unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Osiyoning ilm-fan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo’lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e’tibor qaratganlar.

Buyuk allomalarimiz o’zlariga mansub bo’lgan fan sohalaridagi faoliyatlaridan tashqari, qadimgi yunon tilida yozilgan Aristotel, Ptolemey, Yevklid, Demokrit, Sokrat, Pifagor, Galen kabi qadimgi yunon va ellinizm davrida yashagan olimlarning matematika, falsafa, tibbiyot, geografiya, astronomiyaga oid bir necha yuzlab eng sara asarlarini arab va suryoniy tillarga tarjima qilganlar. Mana shu tarjimalar va o’zlarining asarlari shu tariqa Qadimgi Sharq fanining shakllanishi va yuksak taraqqiyotida muhim o’rin tutgan. Buyuk allomalarimiz yoshligidanoq haqiqiy ilm bir necha tillarni bilishni taqozo etishini juda erta anglab yetganlar va shu bois o’zining ona tilidan tashqari arab, ivrit, fors, suryoniy, yunon, sanskrit tillarini chuqur o’rganganlar. Manbalarda Abu Nasr Forobiyning ko’plab tillarni bilganliklari qayd qilingan. Shubilan birga uning Aristotel asarlariga sharhlari mashhurdir1.

Beruniyning Aristotelga munosabati Abu Ali ibn Sino bilan yozishmasida o’z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari asosan Aristotelning “Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo’yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi deb hurmat bilan tilga oladi.

Ulug’ vatandoshimiz Muhammad ibn Muso Xorazmiy algebra fanining asoschisi bo’lishi bilan birga, turli fanlar sohalarida samarali ijod qilib, nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo fanlarining rivojiga beqiyos hissa

---

[1] Ўрта асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш.Салиҳов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 156 б.

qo'shgan. Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy kabi olimlar hozirgi zamon hisoblash tizimini kashf etdilar.

Manfiy va irriosional sonlar bilan ishlash yo'lini, ildiz chiqarish, kvadrat tenglamalarni yechish usullarini topdilar va o'z kashfiyotlari bilan dunyo fanining cho'qqisiga chiqdilar.

O'rta asrlarda o'lkamizda ko'plab ilm va ma'naviyat maskanlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu markazlarda juda ko'plab olim va ulamolar ijod qilgan, xalqning ma'rifatini ko'targan. Masalan, buxorolik olimlar soni haqida Narshaxiyning shunday gaplari bor: "Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi"1. Mazkur ma'lumot ushbu hududda ilmiy faoliyat tizimining o'sha davrda yaxshi yo'lga qo'yilganligini anglatadi. Shu bilan birga X-XI asrlarga kelib Xorazmda ma'rifatparvar shoh Ma'mun rahnamoligida Gurganjga to'plangan olimlar ishtirokida 1004 yilda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") tashkil topdi. Bu ilmiy markaz tarixga "Ma'mun akademiyasi" degan nom bilan kirdi. Uning rahbari Abu Rayhon Beruniy bo'lib, u boshchiligida qator qomusiy olimlar (Abu Nasr ibn Iroq, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Fazl Bayhaqiy va boshqalar) ko'plab amaliy va ilmiy muammolarni yechib, jahon fani rivojiga katta hissa qo'shdilar. G'arb tadqiqotchilaridan M.Meyerxoff esa "Beruniy musulmon fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuri bo'lishi kerak" degan fikrni bildiradi2.

---

[1] Наршахий, Абу Бакр. Бухоро тарихи. – Т.: «Камалак», 1991. – Б. 90.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг "Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти" мавзусидаги Халқаро Конференциянинг очилиш маросимидаги нутқини Олий таълим муассасаларида ўрганиш бўйича ўқув қўлланма., Т., 2014. 38-бет.

## 1.2. “Qonuniy Ma’sudiy” asari astronomiya tarixini o’rganishda eng muhim manba.

Abu Rayxon Muhammad ibn Axmad Beruniy (973-1048) o’rta asrning buyuk enqiklopedist, jahon bo’yicha eng peshqadam olimlaridan biridir. Beruniy o’z zamonasining deyarli barcha fanlarini, avvalo, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, tarix filologiya kabi fanlarni puxta elalladi. Alloma mazkur fanlar taraqqiyotiga shu qadar katta hissa qo’shdiki, natijada uning nomi jahon ilm-fanining eng ulug’ siymolari qatoridan mustahkam o’rin oldi.

Beruniy shunday degan edi. «Mening hamma istaklarim, butun vijudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o’zim uchun eng ulug’ baxt deb bilaman».

«Beruniy… qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan ko’ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir» degan edi akademik I.Yu.Krachovskiy1.

Yoshi oltmishlarga yaqinlashib qolgan Beruniy o’zining astronomiya sohasidagi tadqiqotlariga yakun yasab, yirik bir asar yaratishni niyat qildi. 1036 yil oxiri yoki 1037 yil boshida yozib tugallangan «qonuni Ma’sudiy» ana shu maqsadning samarasi o’laroq dunyoga keldi.

Bernuniy kitobning kirish so’zida butun umri bo’yi matematika va astronomiyaga qiziqqanligini ta’kidlab yozadi: «….men (avvaldan) ilmi riyoziyning bir uchiga aloqalik, uni mahkam tutgan va unga mansub bo’lgan edim. O’sha vaqtdan beri himmatim bu ilmdan nariga o’tmagan edi».

«Qonuni Ma’sudiy» Beruniyning eng yirik astronomik asaridir XIII asrning mashhur tarixchisi Yoqut Hamaviyning aytishicha, bu asar (Beruniydan) avval astronomiya va matematika sohasida yozilgan barcha asarlardan ustun bo’lgan. Ibn al-qiftiy, Abo’l Fido kabi yirik olimlar ham Beruniy kitobini shu sohadagi asarlari ichida birinchi o’ringa qo’yganlar.

---

[1] Ўрта асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш.Салиҳов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 156 б.

«Qonuni Ma’sudiy» yaratilgan davrda Beruniy g’aznaviylar sulolasidan bo’lmish Sulton Mas’ud g’aznaviy saroyida xizmat qilar edi. Asar murakkab tarixiy sharoitda vujudga keldi.

Sulton Ma’sud irodasiz, mayparast bo’lishiga qaramay, zamonasiga nisbatan ancha o’qimishli kishi bo’lgan va o’z atrofiga olimlarni to’plagan. Uning qo’l ostida Beruniy ilmiy ijod bobida bir muncha imkoniyatga ega bo’lgan. Shuning uchun bo’lsa kerak, Beruniy o’zining astronomiyaga oid eng yirik asarini Ma’sudga bag’ishlaydi. Bu haqida Beruniy bunday deydi: «Ma’sudning «Al-Xikmat» deb ataluvchi xazinasiga, astronomiya san’atiga xos bir qonun bilan xizmat qilishni ixtiyor etdim, bu «qonun» uning oliy ismi va nishoni bilan sharaflandi va uning g’olib davlati afzal bo’ldi, chunki uning eng aziz ziynati bilan bezadim, bu esa «qonuni Ma’sudiy» degan nomdir1.

Beruniy ushbu asarni yozishdagi asosiy maqsad va vazifalari haqida bunday deydi: «Men har bir insonning o’z san’atida amalga oshirishi lozim bo’lgan ishni qildim. U esa: o’zidan oldingi kishining ijtihodini (tirishish, g’ayrat ko’rsatish) minnatdorchilik bilan qobil etish, u ijtihodda biror xalal borligi ma’lum bo’lsa-ayniqsa (planetalar) harakatlari miqdorlarining xuddi o’zini bilish mumkin bo’lmasa-qo’rqmay uni tas’hih etish va ravshan bo’lgan fikrni o’zidan bir qancha vaqt keyin keluvchi kishilar uchun estalik qilib qoldirishdir. Men har bobdagi har bir amal yonida uning illat va sabablarini keltirdim, fikrlovchini o’zimga taqlid qilishdan uzoqlashtiradigan, to’g’ri ish qilgan bo’lsam, uni tasdiqlaydigan, agar yanglishgan yoki hisobda xato qilgan bo’lsam, uni isloh etadigan amaliyot bayon qilishni ustimga olgan edim, uni ado etdim».

Hozirgi kunda «qonuni Ma’sudiy»ning yettita nodir qo’lyozmasi mavjud bo’lib, ular London, Parij, Berlin, qohira va Istambo’l kutubxonalarida saqlanadi. Asar shu paytgacha birorta tilga to’la tarjima qilinmagan. Faqat ayrim bo’laklari yevropa tillariga ag’darilgan, bundan tashqarii, unga ko’pgina tadqiqotlar bag’ishlangan.

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 26-28 б.

Lekin bu tadqiqotlarni mukammal deb bo'lmaydi, chunki ularning hammasi ham «qonuni Ma'sudiy»ning to'laligicha qamray olmaydi. Shularga qo'shimcha qilib qohira universitetining professori doktor Imom Ibrohim Axmad bajargan 111 maqola taxriri haqida eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ibrohim Axmad «qonuni Ma'sudiy»ni Boyazid kutubxonasi (Turkiya) qo'lyozmasi asosida 111 maqolani mukammal filologik va matematik izohlar bilan tahrir qilgan. Lekin bu tahrir arab tilida bo'lganligi uchun faqat shu tilni biluvchilargagina tushunarlidir.

Shunday qilib, «qonuni Ma'sudiy»ni Beruniyni o'z vatani – O'zbekiston xalqlariga yetkazish kun tartibidagi muhim masaladir. Bu masalani «qonuni Ma'sudiy»ni o'zbek va rus tillariga tarjima qilish bilangina hal qilish mumkin edi. Hozigi kunda «qonuni Ma'sudiy» ikkala tilga ham tarjima qilingan.

«Qonuni Ma'sudiy» 11 ta kitob yoki, Beruniy ta'biri bilan aytganimizda, 11 maqoladan iborat bo'lib, har bir maqola bir necha bobdan tashkil topgan. O'zbekcha tarjimoni ikki jildda chop etildi.

Birinchi jild 1-V maqolalardan iborat, qolgan VI-XI maqolalari shu jildga kiradi1.

Maqolalarning bunday bo'lishiga sabab shuki, avvalgi besh maqolada fanning turli sohalarida bahs yuritiladi, qolgan olti maqola esa faqat astronomiyaga bag'ishlangan. Shuning uchun ularni alohida jild qilib chop etish maqsadga muvofiq topildi.

«Qonuni Ma'sudiy»ning 1 maqolasida 11 bobdan iborat bo'lib, Beruniy bu maqolada qisman o'z kosmogoniyasi, olam shakli va xronologiya haqida baxs yuritadi.

1-maqolaning 1-bobi «Olamdagi mavjudodlarning umumiy shakli haqida muqaddima tarzida tafsilsiz qisqacha xabar» deb atalgan. Bu bobda Beruniy olam shaklining sferikligi (sharsimon, dumaloq) haqida fikr yuritadi va «quyi» hamda «yuqori» olamni ajratadi. Beruniyning aytishicha, «quyi olam» to'rt unsurdan (elementdan) iborat bo'lib, bular tuproq, suv, havo, olovdir. «Yuqori olam» esa efirdan iborat. Efir ichma-ich joylashgan sakkiz sferani o'z ichiga oladi, avvalgi

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 287-288 б.

yetti sfera bo’ylab planetalar harakat qiladi. Sakkizinchi sfera turg’un yulduzlar sferasidir. Beruniy planetalarni sferalar bo’ylab shunday tartibda joylashtiradi: birinchi – Oy, so’ngra - Merkuriy, Venera, quyosh, Mars, Yupiter, Saturn, Yer bilan quyosh orasidagi planetalarni Beruniy «quyi planetalar» quyoshdan keyingi uch planetani «yuqori planetalar» deb atadi.

Bu yerda asosan Ptolomeyning planetalar sistemasi bayon qilingan. Ptolomeyning ta’siri ko’proq 2-bobda seziladi. Ushbu bobda «Ptolomey Almajistiy»si 1 maqolasidagi «olti bahs», ya’ni «oltita prinsip» nazariy jihatdan asoslangan. Bu prinsipl    arni Beruniy «asosiy qoidalar» deb atadi. Beshinchi, asosiy qoida diqqatga sazovor. Bu prinsipni asoslashda Beruniy, asosan, Yer harakatsizdir degan xulosaga kelsa ham uning ayrim fikrlari bu xulosani uzil-kesil deb bilmaslik kerakligini ko’rsatadi.

Chunonchi, u (Yerning) «harakatsizligi aksidensiyadir, aksidensiyalar esa doimiy emas» deyishi bunga dalil bo’la oladi1.

Beruniy Yerning harakatlanishi haqida fikrini boshqa asarlarida ochiqroq aytgan. Masalan, asturlob (ko’chma astronomik asbob) yasashga doir asarida Abu Said Sijiziy yasagan bir asturlob haqida bunday deydi: «Men Abu Saida barcha asturloblardan boshqacha asturlobni ko’rdim. Menimcha, u juda yaxshi asbob va osmonning ko’rinma harakatiga emas, balki Yerning qat’iy harakatliligiga asoslangan».

3-bobni sferik astronomiyaga kirish deyish mumkin. Bu bobda gorizontal, ekvatorial va ekliptik koordinat sistamalari ta’riflanadi.

1-maqolaning 4-bobidan to 11 maqolaning oxirigacha xronologiyaga bag’ishlangan. Bu bobning materiali «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuning uchun bu boblar haqida to’xtalib o’tirmaymiz. Faqat shuni aytish kerakki, Beruniy 11-maqolaning 5 bobida Eron, Bobil, Rim, Yahudiy podshohlarining va arab halifalarining xronologik jadvallarini keltirib, Eron, Bobil va Rim podsholarining ismlarini yunoncha transkripsiyada keltirgan.

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 299-302 б.

«Qonuni Ma'sudiy» III maqolasi boshdan oyoq matematikaga oid bo'lib, keyingi maqolalardagi astronomik hisoblashlar vat adqiqotlar uchun matematik apparat bayon qilinadi. Sferik astronomiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan geometriya va trigonometriya masalalari ko'rib chiqiladi.

«Qonuni Ma'sudiy» IV maqolasi sferik astronomiyaning asosiy muammolariga va geodeziyaning ba'zi masalalariga bag'ishlangan. Maqola 26 bobdan iborat. Bu maqolada keltiriblgan ma'lumotlar Beruniyning nihoyatda teran va aniq fikr yuritishini yani bir karra tasdiqlaydi. Masalan, shu maqolaning 1-bobida ekliptikaning ekvatorga og'ish burchagini hisoblash usuli bayon qilinadi, so'ngra o'rta asr astronomlarning asosiy astronomik asbobi bo'lish asturlobning tuzilishi ta'riflanadi. Shu bob davomida Beruniy o'zidan oldin o'tgan mashhur astronomlar-yunon olimlari Eratosfen, Gipparx, Ptolomey, Sharq astronomlari-Yahyo ibn Abu Mansur, Holid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Musa ibn Shokir o'g'illari al-Battoniy, Sanad ibn Ali, mavrlik, damashqlik astronomlar Sulaymon ibn Ismat Samarqandiy, Abo'l Xusayn So'fiy, Abo'l Vafo Buzjoniy, Abu Hamid Sug'oniy, Mansur ibn Talha, Muhammad ibn Ali al-Makkiy va Abu Maxmud Xujandiylarning ekliptikaning og'ish burchagi uchun topilgan qiymatlarini keltiradi va shu bobning oxirida o'zi topgan qiymat -230 35' ni keltiradi. Beruniyning oxirida o'zi topgan qiymat – 230 34' dan faqat 1' ga farq qiladi, holos1.

Yana bir misol. 2 bob oxirida graduslarning og'ishlar va kengliklar jadvallari keltiriblgan. Beruniyning bu jadvallari undan oldin tuzilgan jadvallar ichida eng aniqlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, hozirgi zamon matematik simvolikasi asosan XVII asr oxirilarida yuzaga keldi. U davrgacha matematik belgilarning bo'lmaganligi matematika fanining rivojlanishini birmuncha orqaga surdi. Shunga qaramay, Beruniy matematik formulalardan foydalanmasdan so'z bilan aytilgan qoidalari hozirgi zamon formulalariga ko'chirilsa, uning aqLiy mulohazalash qobiliyatining nihoyatda kuchli bo'lganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 368-369 б.

IV maqoladan yana bir qiziq dalil keltiramiz. Beruniy shu maqolaning 23 va 24 boblarida «to’rt vatad», «qoziq»ni ta’riflaydi. Shundan so’ng Beruniy «ko’rinish iqlimi kengligi» degan yangi tushuncha kiritadi va uni «ko’ruvchi og’ish» va «kunduz yarmi balandligi»ning funksiyasi sifatida topiladi.

Beruniy kiritgan bu funksiya tushunchasi undan avvalgi arab va yunon astronomiyasida qo’llanmagan va faqat hind-astronomiyasida qo’llanilgan. Demak Beruniy bu tushunchani birinchi bo’lib o’sha davr astronomiyasiga kiritdi.

V maqolada o’rta asr fani oldida turgan eng mushkul masalalardan biri-joyning geografik uzunligini aniqlash, shuningdek koordinatalarni, masofalarni va joylar azimutini hisoblash bilan bog’liq masalalar mufassal bayon etiladi.

Jumladan, V maqolaning 8-11 boblari diqqatga sazovordir. Chunonchi, 8-bobda muallif Yer Shimoliy yarim sharini yetti mintaqaga bo’ladi.

9-bobda Yerning odamlar yashaydigan (ma’mur) qismi tavsiflanadi. Shuningdek, turli xalqlarda Yer ma’mur qismining qanday bo’lishi bayon qilinadi.

10-bobda yetti iqlim bo’yicha joylashgan mamlakatlar, o’lkalar, viloyatlar, orollar, shaharlar va ularning geografik koordinatalarining jadvallari keltiriblgan. Bu yerda Yaqin va O’rta Sharq, O’rta Osiyo, g’arbiy Hindiston shaharlari haqidagi ma’lumotlar anchagina aniq berilgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, Beruniy ushbu bobda Shosh viloyati, ya’ni qadimiy Toshkent viloyatining poytaxtini, «Toshkent» deb ataydi. Demak, respublikamiz poytaxtining nomi kamida ming yillik tarixga ega.

Beruniy Sharqiy Yevropada o’sha davrda yashagan saqlab (slavyan), rus (normann), burjon (bolgar), unqra (venger) va yura (ugro-fin) qabilalari hamda Sharqiy Yevropa va Osiyoda yashagan turk, turkman sug’d xalqlari haqida xabarlar beradi.

V-maqolaning eng oxiri, II bobida har xil shartlarga ko’ra joyning kengligi va og’ishini topishga doir masalalar va Sharqning mashhur astronom va matematiklari: Sobit ibn qurra, Sanad ibn Ali, Annayriziylarning shu masalalarni yechish usullari keltiriblgan1.

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 415-419 б.

Masalaning shartiga qarab, kenglik va og'ishni topish qoidasi ixcham, ba'zan esa murakkab formula ko'rinishini oladi.

Asarning VI maqolasi quyoshga va uning harakati natijasida sodir bo'ladigan hodisalarga bag'ishlangan. Shu maqolada uch burchak qoidasiga ko'ra shaharlar orasidagi masofani topish masalasi ham ko'riladi. Bu maqolada Beruniy quyosh apogeyining harakatlanuvchi ekanligini hisoblaydi.

VII maqolada Oy va uning harakatlariga bag'ishlanadi.

VII maqolada quyosh va Oy tutilishlari haqida baxs yuritiladi. Bu yerda Beruniy juda aniq formulalarga asoslanib quyosh va Oy tutilishi jadvallarini keltiradi. Jadvallarda eramizdan avvalgi VIII asrdan beri sodir bo'lgan quyosh tutilishlarining aniq vaqti hisoblangan. Shu bilan birga u o'zidan keyingi asrlarda ro'y beradigan quyosh tutilishi vaqtlarini ham hisoblab chiqargan. Beruniy Oy to'tilganda Yerning ikki nuqtasidan turib kuzatish o'tkazish yo'li bilan joyning geografik uzunligini aniqlash usulini nihoyatda takomilligini yetkazdi. Olim joyning geografik kengligini aniqlash bobida juda katta ish qildi.

IX maqola turg'un yulduzlarga bag'ishlangan. Bu maqolada Beruniy cheksiz koinotdagi tumanliklar yulduzlar to'plamidan iborat ekanligini ta'kidlaydi va shu bilan qadimgi yunon astronomlarining tumanliklar bug' to'plamlaridan iborat, degan fikrlari noto'g'ri ekanligini isbotlaydi. Shu maqolada Beruniy 1029 yulduz katalogini keltiradi. Uning katalogi O'rta asrlarda ham va birmuncha keyingi vaqtlarda ham eng mukammal katalog bo'lib qoladi1.

X maqolada planetalar harakatiga bag'ishlangan. Bu yerda planetalar harakat jadvallari ulargacha bo'lgan masofalar, ularning kattaligiga oid miqdorlar keltiribladi.

XI maqola ob-havo (metereologiya) va qisman astrologiyaga bag'ishlangan.

Beruniy «qonuni Ma'sudiy» asari, yuqorida aytganimizdek, biror tilga, jumladan, yevropa tillariga tarjima qilinmagan va yevropalik olimlar tomonidan o'rganilmagan. Shunday bo'lsa ham, buyuk xorazmlik olimning bu asari Yevropa astronomiyasiga bilvosita ta'sir ko'rsatdi.

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 426-428 б.

Ma’lumki, XIII asrning buyuk astronomii Nasriddin Tusiyning (1201-1274) Marog’adagi rasadxonasida astronomiyadan asosiy qo’llanma Beruniyning «qonuni Ma’sudiy» asari edi. Nasriddin Tusiy rahbarligida yozilgan «Ziji Elxoniy» (zij-jadval degani) Beruniy asarining asosiy mag’zini o’ziga singdirgan. Keyinroq Ulug’bekning (1374-1449) Samarqand rasadxonasida ham «qonuni Ma’sudiy» asosiy qo’llanma bo’lgan. «Ziji Guragoniy»ning yozilishicha «qonuni Ma’sudiy» bilan birgalikda «Ziji Elxoniy» ham ta’sir ko’rsatgan.

XVII asrning o’ttizinchi yillarida ingliz astronomii Jon Grivs (1602-1662) Istanbulda bo’lib u yerdan Ulug’bek zijining bir nusxasini olib ketadi. Shundan so’ng bu asar Oksford (Angliya) astronomlari tomonidan o’rganildi.

Shunday qilib, Beruniyning «qonuni Ma’sudiy» asaridagi astronomik g’oyalar-Ziji Go’ragoniy orqali Yevropa astronomlariga ta’sir ko’rsatdi1.

Shunday qilib, Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» medisina tarixida naqadar muhim rol o’ynagan bo’lsa, Abu Rayxon Beruniyning «Qonuni Ma’sudiy» asari ham astronomiya tarixida shunchalik ulkan ahamiyatga ega bo’ladi. Bir zamonda yashagan va bir-birovlarini yaxshi bilgan bu ikki ulug’ zot medisina va astronomiya fanlarining o’sha vaqtga qadar qo’lga kiritgan barcha yutuqlarining «qaymog’i»ni jamlab unga yakun yasabgina qolmay, o’zlarining uzoq yillik nazariy va amaliy tadqiqotlariga tayangan holda bu ikki fan sohasini shunday katta yutuqlar bilan boyitdilarki, anna shu yutuqlar har ikki «qonun»ning asrlar osha yashashini qonuniy bir hodisa qilib qo’ydi.

---

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 487-489 б.

## 1.3. Beruniyning “Qonuniy Ma’sudiy” asari osmon jismlarini o’rganishdagi o’rni.

Hozirgi davrda osmon jismlari o’rganish shu qadar muhim o’rin olganki, go’yo u azaldan mavjuddek tuyuladi. Haqiqatda esa osmon jismlari haqidagi bilmlar asrlar mobaynida asta-sekinlik bilan takomillashib kelgan.

Fan tarixi ma’lumotlariga ko’ra, olti ming yail muqaddam odam o’z mehnatini yengillashtirish maqsadida g’ildirakni kashf etgan. Tikuv mashinasi 1755—1848, elektromotor 1825—1886, telefon 1820—1876, radio 1867—1902, elektr lampa 1894—1905, rentgen 1895—1913, televizor 1926—1949, tranzistor 1948—1953, yadro reaktori 1932—1942, atom energiyasidan foydalanish 1939—1954, lazer nuri 1936—1961 yillarda kashf etilgan1.

Ma’lumki, inson yaratgan belko’rak, bolta, tesha, arra, randa, parma, o’roq, ketmon, temir plug, zambil, charxpalak, snaryad, ariq kazgich mashina, paxta teradigan mashina, samolyot, raketa va boshqalarning hamma-hammasi osmon jismlari degan umumiy nom bilan ataladi. Inson jamiyatda yashab, moddiy ne’matlarga boy ulkan «ustaxona» — tabiatga ta’sir etib va undan foydalanib, yaratuvchilik bilan mashg’ul bo’lganiga million yillardan oshdi.

Ana shu yaratuvchilik ishiga barcha mamlakatlarning olim va donishmandlari kabi Urta Osiyo mutafakkirlari ham munosib hissa qo’shib kelishgan.

Jumladan, Xorazmiy, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Xo’jandiy, Ibn Iroq, Firdavsiy, Qoshg’ariy, Ibn Sino, Ulugbek, Navoiy, Jomiy va boshqalar hunarmandchilikni rivojlantirishda, osmon jismlari taraqqiyotida katta xizmat ko’rsatishgan.

Qomusiy bilimlar donishmandi Abu Rayhon Beruniyning bu sohadagi xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. Uning «Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo’yicha ma’lumotlar» nomli, shartli ravishda «Qonuniy Ma’sudiy» deb ataladigan

[1] Беруний, Абу Райхан. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). (Перевод: А.М. Беленицкого. Под редакция проф. Г.Г. Леммлейна, проф. Х.К. Баранова и А.А. Долининой. Статьи и примечания А.М.Беленицкого и Г.Г. Леммлейна). Ленинград., 1963 г. 123-125 с.

kitobiiing o'ziyoq hunarmandchilik va osmon jismlari taraqqiyoti uchun eng yaxshi yozma manba hisoblanadi.

Ushbu kitobda Beruniy o'zigacha va o'z davridagi temirchilik, zargarlik, shishasozlik, oltin saralash, misgarlik, g'avvoslik, tosh tarashlash kabi o'nlab hunarmandchilik turlari haqida qiziqarli ma'lumot beradi.

Uning yozishicha, qalayi, oq mis (bronza), shisha va chikni buyumga oltin suvi yuritish texnologiyasi murakkab bo'lgan. Chunonchi, oltin qumga mustahkam yopishgan bo'lib, uni ajratib olish uchun, avvalo toshni maydalash kerak, buning uchun esa tegirmondan yoki maxsus tayyorlangan o'g'irlardan foydalaniladi. Qog'oz tayyorlashda qo'llanadigan, suv bilan ishlaydigan mashhur Samarkand o'g'irlaridan ham foydalanish mumkin. Shundan so'ng toshlar yuvilib, oltin simob yordamida ham ajratiladi.

Ma'lumki, oltin noyob metall bo'lib, ming darajadan ortiq temperaturada eriydi. Demak, oltindaya buyum yasash uchun, shunga mos texnik asbob-uskunalar zarur bo'lgan, albatta. Beruniy keltirgan ma'lumot o'sha davrda ana shunday texnik jihozlar yasalganidan darak beradi. Bu fikr esa hunarmandchilik vaqtlar o'tishi davomida oltin saralash fabrikalarini vujudga keltirganiga shubha qoldirmaydi.

O'sha kitobning shishaga oid bobida Beruniy shisha va uni ishlash texnologiyasi qadimdan mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Uning yoznshicha, shisha maxsus toshning eritmasi bo'lib qum va potash (ya'ni, maxsus o'simlik kuli) — «ishqor» yordamida olinadi1.

Olim bu texnologiyani quyidagicha bayon etadi: «Shisha hosil qilish uchun ikkala xomashyo — qum va kul yaxshilab aralashtirilib, ma'lum idishga solinib, bir necha kun davomida uzluksiz qizdiriladi. Natijada qumdagi ayrim zarralar potash yordamida erib shisha hosil qilsa, erimay qolgan boshqa zarralar qum donalaridan ajralib, ko'pik hosil qiladi».

Olimning bu ko'rsatmalari hozirda isbotlangan. Ya'ni, 900 — 1200 daraja issiqlikka chidamli xumdon g'ishtlari va shisha eritadigan idishlardan

[1] Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973. 498-500 б.

foydalangan hunarmand ajdodlarimizning yuksak texnik bilimiga qoyil qolsak arziydi.

Beruniy billur, marvarid va boshqa qimmatbaho toshlardan har xil buyum va zebzinnat yasovchi hunarmandlarning ishi, mehnat taqsimoti, bilim darajasi, malaka va ko'nikmalari haqida ham mufassal ma'lumot beradi.

«Basrada,— deb yozadi Beruniy, — tog' billuridan idish, asbob va zarur buyumlar tayyorlashadi. Billurni qayta ishlaydigan joyda birinchi bo'lib bosh usta ish boshlab, turli kattalikdagi billurni qo'liga olib, yaxshigina razm solib, undan chiroyli va tegishli narsa yasashni belgilab chiqadi. Shundan so'ng shog'irdlar bosh usta ko'rsatmalari asosida ish boshlashadi... Bosh ustalar bilim va tajribada boshqalardan farq qilgani uchun ish haqini ikki baravar ortiq olishadi».

Alloma so'zini davom ettirib aytadiki, tog' billuri suvdek tiniq, havodek noziq, uning bir cheti sinsa, uchsa yoki yorilsa, yarqirashi kamayadi, ustaning ishi qiyinlashadi. Bunda parmalovchi usta o'z san'atini ko'rsatib, billurning o'sha jarohatlangan joyini tartibga solishi, o'sha joyga moslab yozuv yoki gul o'yishi talab etiladi.

Beruniy tarixni urganish, tadki. etish va xulosalar chikarish tamoyillarini tavsiya etar ekan, uni davrlarga bulish, xar bir davrning o'ziga xos jixatlarini aniqlash va ana shu usul orkaligina ijtimoiy xayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baxr berish mumkin bulishini ta'kidlaydi. Boiщacha qilib aytganda, tarixga ta'rif beradi, uni fan makrmiga olib chikadi va ilk nazariy asoslarini yaratadi. Jumladan, u «biror utib ketgan yilning avvalidan xisobga olinadigan ma'lum bir muddatga tarix deyiladi. Usha yilda turli alomatlar va dalillar bilan (kandaydir) paygambar dunyoga kelgan yoki kudratli, sha'ni ulug bir podsho bosh ko'targan,

---

[1] Файзуллаев О.. «Абу Райх.он Берунийнинг «Қаимги Юищлардан колган ёдгорликлар» асаридаги баъзи масалалар ҳакида. А. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, Т.в «Фан», 1968, ' l 24-бетлар.

[2] А. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, Т., «Фан», 1968, 28-бет

yoki xa-rob kiluvchi umumiy tufon, zilzila va xalokatli yer yutish, xalok etuvchi vabo va kattik, kdxatchilik natijasida biror millat xalokatga uchragan, yoki davlat va xukmdorlik bir xonadondan boshkasiga utgan, yoki biror din ikkinchisiga almashgan, yoki osmon xrdisalaridan va yerning mashxur alomatlaridan biron muxim narsa yuz bergan bo'lishi kerak, bular o'zok, asrlar va kup zamonlarsiz paydo bulmaydi. Bunday xrdisalar orkali ma'lum vaktlar, ta-rixlar aniklanadi, dunyo va dinga oid barcha (ishlar)da bunga extiyoj seziladi»1, deydi.

Beruniy ana shu tarzda turli tabiiy ofatlar yoki jid-diy o'zgarishlar, podsholiklarning o'zgarganligi va bosh-ka tabiiy xrdisalar yuz bergan davrlarning boshidan oxi-rigacha bulgan k.ismini tarixiy davr deb tushunadi va ana

shu davrni tadkikrt obyektiga aylantiradi. Tarixni urga-nishga bunday yondashuv, shubxasiz, fan metodologiyasi va tadkikrt predmetining mux.im unsurlaridan biri xisob-lanadi. Zotan, yangi tarixni, butun insoniyat utmishini aloxida-alox.ida xalkdar, mamlakatlar, millatlar va davrlarga bulib urganmasa, utmish k.atlarini ochish ancha oshr va samarasiz kechadi.

Ana shu xulosalardan kelib chikib, Beruniy insoniyat tarixini yaxlit xrlda urganish uchun, eng avvalo, xar bir xalk», mamlakat yoki mintaka tarixini urganish zarurli-gini uktiradi. Chunki x.ar bir xalk. o'z fe'l-atvoriga, o'z milliy xususiyatlariga, dunyoqarashlar tizimiga, olamni anglash, tushunish, idrok etish imkoniyatiga va usuliga ega. Ana shu imkoniyat xar bir xalk. tarixining asosidir. Beruniy ushbu ilmiy xakikat nuk.tai nazaridan tarixga yondashadi va natijada «barcha mamlakatlarga tarkalgan xalklardan x.ar birining aloxida tarixi bor, uning pod-shoxdari, paygambarlari, davlatlari yoki men yukrrida aytgan x.odisalarning biridan xisoblaydi. Shu tarix yorda-mi bilan muomala ishlarida x.amda vak,tlarni bilish xu-susida kerakli (muddatlarni) belgilaydi va bu tarix ularni boshka xalklardan ajratadi»1, - degan xulosaga keladi.

Tarixiy manbani urganish, uning asosli yo asosli emasligini anikdash tarixiy tadkikrt uchun aloxida mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manba yaratgan-lar, turli xujjatlarni bitganlar yoki tuplaganlar o'z manfaatlari doirasida, o'z maqsadlari

[1] А. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, Т., «Фан», 1968, 28-бет.

va k.izikishlari che-garasida dalil tuplaydilar. Barcha insonga xos bulgan bunday illat, jumladan, tarixchilarni x.am istisno etmaydi. Ana shu xrlatni nazarda tutgan Beruniy «xabar xa-barchilar sababli rost va yolgon tusini oladi»1, deydi.

Tarix hakikatini tiklash, tarixiy tafakkur va tarix x.akidagi ma’lumotlarni egallash Shark. tarix falsafa-sida anik, me’yorlarga ega va bu me’yorlar bevosita xar bir nokelikka xolis yondashib, asosli xulosalar chikarishni talab kiladi. Beruniy o’z davrida kupdan-kup noxolis, turli manfaatlarga yo’naltirilgan xulosalarga, tarixiy jarayonga o’z shaxsiy manfaatlari orkali baxr berishdek soxta va gayriilmiy manbalarga kup uchragan, shekilli, u «birov o’zi sevadigan bir tabakaga minnatdorchilik bil-dirmokchi bulib yoki yomon kurgan bir sinfni xafa kil-mokchi bulib, ular tugrisida yolgon xabar tarkdtadi. U bu xabarni yo dustlik, yo dushmanlik natijasida tarkatgan bo’ladi»2, deydi.

Ba’zan shunday bo’ladiki, tarixiy manba yuzaki, xavoyi, anik ilmiy asosga va xayotiy vokelikka ega bulmaydi. Ular mavjud jamiyat ijtimoiy moxdyatini o’zida ifoda eta ol-maydi. Xar k.anday yutuk. insoniyat tafakkurining buyuk mu’jizasi sifatida kishilik xayotini kachon, kanday shaklda, kanday maksadda ijobiy tomonga burib yuborga-nini yoki aksincha, salbiy qarashlar va goyalar kaysi ji-xatlari bilan, kanday shaklda jamiyat taraqqiyotini ta-nazzulga olib borganini batafsil ochib berolmaydi, kuruk. ma’lumotnoma vazifasini bajaradi, xolos. Tarixchi bun-day manbalardan yetarli ma’lumot ololmaydi va natija-da tegishli davr moxiyatini butun kulami bilan tadkik. kilolmaydi. Buni «ojiz asoslarga ega bulgan goyalar, fan va soxdlar ojiz natijalarni keltirib chikaradi. Ular-dan kelib chikuvchi xulosalar xakikiy ilmlarga nisbatan chalkashdir»3, deb baxrlaydi Beruniy.

Axmad Zaki Validiy Tugon Beruniy tarix falsafasi-ni o’rganar ekan, uning o’ziga xos jщatlarini aloxdda ta’-kidlaydi. Jumladan, Beruniyda tarixiy xrdisalar o’z davriga xos turli dinlarga mansub shaxslar qarashlarining in’ikosi, ijtimoiy x.ayot uning ko’zgusi sifatida talkin etiladi. Insonning xayotiy extiyojlari,

---

[1] А. Беруний. 100 хлкмат. Т., «Фан», 1993, 15-бет.
[2] А. Беруний. 100 ҳикмат. Т., «Фан», 1993, 16-бет.
[3] А. Беруний. Избранные произведения. Т., 1966, стр. 260.

yashashga intilish-lari, turmush muammolarini xal etищsa akdni ishlatish, akl orkali ogirni yengil kilish, mexnat unumdorligini va xayot farovonligini ta’minlashda akd kuchidan foyda-lanish zaruriy extiyoj ekanligini alox.ida ta’kidlaydi.

Beruniy xuddi ana shu qarashlari bilan o’zining ikti-sodiy-ijtimoiy muammolarni xal etish orkali tafak-kur va tabiat konuniyatlariga tegishli bulgan fanlar-ping rivojlanishiga asos soldi degan goyani ilgari su-radi. Natijada tibbiyot, musika, mantiq, til, adabiyot va san’at bilan birga tabiat xakidagi anik, fanlar yuzaga keldi va bu o’z davrida kandaydir fanlararo integrasiyaning vujudga kelishiga xizmat qildi.

Ahmad Zaki Validiy Tutoy Beruniy falsafasini o’rganar ekan, uning xulosalariga kura «Yer kurrasining x.ayoti kabi, bashariyatning xdm kelib chikish manbasi aniklan-magan tarixdan oldingi x.ayoti mavjuddir. Yer kurrasining \ayoti mukaddas kitoblar bilan boglik emas, Yer kobiga k,atlamlarida vujudga keluvchi o’zgarishlarni tadkik etish bilan bilib olinadi. Biz bu kobik va katlamlar ustidagi goshlar va tuprokdarni tadkik. etib, juda kadi zamonlarda ularning eritilgan ma’dan (mineral) xolida, xaro-rat ta’siri bilan turli shakllar olganliklarini, sungra sovib borganliklarini isbotlash yulidan borib tuprok yuzasidagi o’zgarishlarni jarlar va kulab kuporilayotgan joylarda uchratadiganimiz alomatlarini o’rganib, inson-ning madaniy xayotidagi inkiloblarini ham eski, obod ulkalarning xarobalarini tadkik etib isbotlaymiz», degan goyalariga jiddiy e’tibor beradi. Bu bilan Beruniy tarixni urganishda geologiya, mineralogiya, arxeologiya fanlarining ulchovlari va yutukdaridan foydala-pish zarur degan fikrni ilgari suradi. Ahhkpofh, ayni a na shu fanlar tarikdiyotiga ham muxdm x.issa kushadi, ularning yangidan-yangi kirralarini kashf etadi va nagi jada u «Yer yuzidagi tabiiy jarayonlarning o’zgarishida tabiiy yerlar sovib yoxud aksincha, sovuk yerlar issik, bulib almashinib turgan, insonlar ham ana shunga moye ravishda uch yashash joylarini o’zgartirib turganlar va kuchmanchilik ham kilganlar»1, degan xulosani ilgari suradi.

Bu tabiiy jarayon. Inson yashash uchun o’ziga kulay sharoit va imkoniyat kddiradi. Bu, ayniksa, ibtidoiy davrga xos xususiyat. Birok, masalaning yana

[1] Уша манба. Уша жой

борща bir jixdti xdm borki, ayni ana shu tabiiy jarayonlar — atmosfera-ning issiklashuvi yoki sovuklashuvi okdbatida tabiiy sharoit ta’sirida odam fe’l-atvori shakllanadi. Turmush tarzi, xayotga intilishlari, yashash uchun kurash usullari va tajribalari oshib boradi. Ana shu xrlat inson xarak-terining tabiiy ravishda o’zgarishiga, ma’lum bir guruxlar, k.abilalar va xalkdarning o’ziga xos turmush tarzi, an’analari va madaniyatining shakllanishiga asos bula-di. Beruniy tarix falsafasining moxiyati xuddi ana shu falsafiy mantik. bilan belgilanadiki, buni Axmad Zaki Validiy Tugon juda chukur tushunadi va talkdsh etadi.

Axmad Zaki Validiy krmusiy olim Abu Rayxrn Beru-niyning tarix falsafasini tadjik, etar ekan, uni buyuk idealist sifatida kuradi va insoniyat xayotida axlokiy me’yorlar hamda ma’naviy tamoyillarni oliy darajadagi kadriyat makrmiga ega deb tushunadi va Beruniyning kuyi-dagi fikrini mamnuniyat bilan keltiradi: «Tarixda xdkikdtni aniklab beradigan yul akliy dalillar (al-is-tidlol bi-l-ma’kulot) va kurib xis etadigan narsalar bilan kiyoslaщsir. Ammo tarixning ilk davrlariga oid ma’lumotlar kupincha millatlarning diniy rivoyatlaridan boshkd narsaga tayanmaguncha ish chatoklashaveradi (chal-kashaveradi). Shu kabi qorishik, xollarda rivoyatlar va qarashlarni mukryasa kilish va bu ishda ko’zlarga x,akikat-ni kurishni man etuvchi extiyojlardan, taassublar, shovinizm, x.issiyotga berilib ketish, egoizm kabi ko’zni kur qilib kuyuvchi narsalardan o’zini toza tutish (oklash) birinchi shartdir. Garchi bu yul otr bir yuddir, chunki xa-barlar va rivoyatlar uydirma (botil) bilan krrishib bulga-nidek, ularning bir kdnchasi tabiiy axvolga uygun va imkoniyat tashkdrisida namoyon bulishligidan ular orasidan x,akdk.atni yolgondan ajratib olish kup mushkul bo’ladi. Shu bilan birgalikda x.akik.atga erishmok. uchun yagona yul men kursatgan yul (ya’ni akd, muk.oyasa va betaraf tankid yuli)-dir. Shu yuzasidan va bir inson umri rivojlangan millat-larning emas, aloxida olingan bir millatning tarixini ayni (ya’ni aytib utilgan tankid usulida) tarzda taxdik etish (aniklab olish) va ximoya kilish uchun kifoya kdp-masligi uchun, biz fakdtgina x.odisalarning o’zimizga eng yakin va anik, bulganlarini kulga olamiz va ularni xam (salox,iyat sox.iblari va e’timodga loyik.)

arboblardan surab nazorat etmoshmiz, undan ork,ada x.olganlarini yuzaki holda qoldirmasligimiz talab etiladi».

Beruniy falsafasiga kura x.ar k,anday tarixiy jarayon inson akd-idrokining maxsulidir. )har k.anday kishi o’z akl-idroki doirasidagina faoliyat yuritadi va tur-mush tarzini uning chegarasida yulga kuyadi. Xar bir ki-shiga xos bulgan bunday x.olat yaxlit bulganda umumiy ja-miyat ma’naviy kiyofasini, intellektual darajasini bel-gilaydi. Shuning uchun x.am Beruniy «Avom xalk.ning gabiati sezgi ork,ali anglaniladigan narsalar bilan chek-lanib, asosdan kelib chikadigan shoxobchalarga k.anoat hiladi, asosning tekshirilishini istamaydi»1... Chunki «bilimsiz kishilarning kungli xurofotga moyil bo’ladi»2, - deydi.

Bu bir tomondan ma’rifat, madaniyat inson uchun kay darajada zarur bulsa, jamiyat uchun x.am shu darajada extiyoj ekanligini kursatadi. Natijada shunday xakdkat yuzaga keladiki, avom xalq bilimdan begona. U o’z akl-idroki darajasida xurofot va bid’atga keng imkoniyat yaratgan jamiyat qursa, ma’rifatli odamlar taraqqiyotning yangi cho’qqilarini egallagan xolda kishilik jamiyati rivojlanishining kutilmagan qirralarini kashf etadilar. Zotan, ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli xalk. yaratadi. Johillik xukmron bulgan jamiyatda esa jaholat, bid’at, xurofot avj oladi. Xalq va millat qismati baxti qarolikka, xoru zorlikka maxkum etiladi. Ana shu nuktai nazardan Karaganda «fikrga karshi — fikr, g’oyaga qarshi — g’oya, jaholatga qarshi — ma’rifat» degan shiorning butun mohiyati, ijtimoiy-ma’naviy kadriyati ko’zga yaqqol tashlanadi.

Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli barcha yo’nalishlari bo’yicha buyuk kashfiyotlar qilgan qomusiy olimdir.Alloma zamondoshlari iborasi bilan aytganda “ qo’li hyech qachon yozishdan to’xtamagan, nigohi muttasil kuzatish bilan band bo’lgan, qalbi esa fikrlashga mudom qanot bog’lab turgan”3 olim bo’lgan.

O’rta asr arab sayyohi va geografi Yoqut Hamaviyning shahodat berishicha, Beruniyning falakiyot, mantiq, falsafa va tarixga oid asarlari ro’yxati mayda yozuvda 60 varaqni tashkil etgan. Uning turli bilim sohalariga oid asarlarining

---

[1] А. Беруний. 100 хикмат. Т., «Фан», 1993, 14-бет
[2] Уша манба. 7-бет.
[3] Каримов Ш., Р.Шамсутдинов.Ватан тарихи. Т.”Ўқитувчи2.1997. 244-бет.

tiklangan ro'yxati hozir turli hajmdagi 150 risolaga yaqin. Shundan qariyb 30 ta asari saqlanib bizgacha yetib kelgan.1

Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari "Al- osor al – boqiya an al qurun al -holiya"-"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari bo'lib, uni Jurjonda 27 yoshida yozgan (390/ 1000 yilda). Beruniyning bu yirik tadqiqoti o'zbek sharqshunosligida "Osorul -boqiya", Yevropa mamlakatlarida "Xronologiya" nomlari bilan mashhurdir.

Ushbu asarda olim Yaqin va O'rta Sharq, shuningdek, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan xalqlar haqida , jumdadan yunonlar, rumliklar, eroniylar, so'g'diylar, xarroniylar (yulduzga topinuvchilar), kibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlarning yil hisoblari , hayitlari va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab bergan. Unda juda ko'p tarixiy voqyealar, turli millat va dinlarga oid muhim ma'lumotlar, payg'ambarlar va soxta payg'ambarlar, podshohlar, mashhur tarixiy shaxslar va olimlar haqida ham axborotlar berilganki, ularning aksariyati mavjud adabiyotlarda uchramaydi.

Beruniy "Osorul boqiya" kitobida qadimiy sharq xalqlari –arablar, suriyaliklar, yahudiylar, eroniylar, sug'dlar, xorazmliklar va shu zamonda yashagan boshqa xalqlarning turmush qoidalari, urf-odatlari, yil sanoqlari, bayramlar va marosimlar, xullas nimaiki xalq hayotiga oid bo'lsa, shuning hammasini ilmiy asosda tadqiq etadi. "Osorul boqiya"ni O'rta Osiyo, Eron, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi xalqlar etnografiyasi, tarixi, ijtimoiy tafakkuri bo'yicha mukammal qomus deb atasak xato qilmaymiz.

"Osorul boqiya" ya'ni "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarining arab tilidagi birinchi nusxasi birinchi marta nemis sharqshunos olimi Eduard Zaxau ( 1845-1930) tomonidan 1878 yili Leypsigda chop etilgan. 1879 yilda Zaxau uni inglizcha tarjimasini Londonda nashr etadi.Ammo Zaxau nashriyotlari XVII-XVIII asrlarda ko'chirilgan qo'lyozmalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu qo'lyozmalarda ko'p tushib qolgan joylar bor edi. 1912 yilda asarning ikkita ancha qadimgi qo'lyozmasi topildi. Ulardan bittasi Tehrondagi rus diplomatik

[1] Ўзбекистон халқлари тарихи, 1-жилд. Т. "Фан". 1992, 109-бет.

vakolatxonasining vakili L.Bogdanov tomonidan qo'lga kiritilgan bo'lib, hozirda Rossiya FA ning Sankt Peterburgdagi bo'limida saqlanmoqda. Ikkinchi qo'lyozma Istambulda topilgan va Istambul xalq kutubxonasida saqlanmoqda. XX asrning 70 yillarida asarning Mashhad qo'lyozmasi ham mavjudligi aniqlangan. Va buning mikrofilmi beruniyshunos P.G.Bulgakov tomonidan Toshkentga olib kelingan. "Osorul boqiya" birinchi marta o'zbek tiliga olim Abdufattoh Rasulov tomonidan tarjima qilindi va 1968yili Toshkentda chop etildi.[1]

"Osor ul-boqiya"ga jahon sharqshunoslari juda katta baho berganlar. "Hozir ham Yaqin Sharqning butun ilmiy adabiyotida bu bu kitobga teng keladigan asar yo'qdir", -deb yozgan edi akademik I.Yu.Krachkovskiy.[2] Kitobning O'rta Osiyo xalqlari, ularning qadimgi madaniyati va tarixiga oid ma'lumotlari juda muhim ahamiyatga egadir. "Bu asar Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining , birinchi navbatda, O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik hayoti , urf-odatlari, marosimlari, e'tiqodlari haqidagi o'ziga xos bir qomusdir", deb ta'rif bergan akademik S.P.Tolstov.

"Osorul boqiya" kitobi to'g'risida S.P.Tolstov, V.P.Sheglov, V.Yu.Zohidov, M.A.Salye, U.A.Karimov, P.G.Bulgakov, Ya.Ya.G'ulomov, A.Irisov, I.Abdullayev kabi olimlar o'zlarining Beruniy ijodiga bag'ishlangan asarlarida qimmatli fikr va mulohazalar bildirganlar.

Beruniy "Qadimgi yodgorliklar"ida dastavval kecha va kunduz to'g'risida kitobxonda aniq tasavvur tug'diradi..Quyoshning burjlar falakida bir marotaba aylanib chiqishidan Quyosh yili kalendari tuzilgan. Ana shu aylanish muddatida Oy ham 12 yarim marta o'sha doirani aylanib chiqadi. O'n ikki marta osmonda Hilol (yangi oy ) paydo bo'ladi.Shundan qamariy (oy) kalendari vujudga kelgan. Quyosh yili 365 kun bo'ladi. Ortib qolgan chorak kunlar to'rt yilda bir kun hosil qilgach, o'sha qo'shimcha kun to'rtinchi yilning kalendariga qo'shiladi. Bu yil kabisali (qo'shimcha)li yil deb ataladi.[3]

"Osorul-boqiya" asarining "Xronologiya" deb shartli nom olgani bejis emas. Olim bu kitobni " tarixlar ( ya'ni yil hisoblari), ularning boshlanishlari,

---

[1] Абу Райҳон Беруний, Танланган асарлар. I-том, Қадимги халқлардан тқолган ёдгорликлар, Т. "Фан", 1968
[2] И.Ю.Крачковский. Избранные сочинения. т.IV. М.-Л. 1965г, стр 244
[3] Қаюмов А.. Абу Райҳон Беруний .Абу Али ибн Сино. Тошкент.1987йил, 17-бет.

shahobchalari, ya'ni oylar va yillari bo'lmish xalqlar ustida o'shal tarix egalarining ixtiloflari ( hisoblashdagi farqlari) va bu ixtilofning sabablari, mashhur bayramlari, turli yumushlar uchun belgilangan kunlari, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zi amal qilmaydigan (boshqa) marosimlari " haqida ekanini ta'kidlaydi.1

"Osorul boqiya"da tarixlar mohiyati va turli xalqlarda mavjud bo'lgan tarix tushunchasi to'g'risida muhim ma'lumotlar bor. Biror o'tib ketgan yilning avvalidan hisobga olinadigan ma'lum bir muddatga tarix deyiladi. Bu fursat biror katta voqyea (biror ulug' shaxsning chiqishi yoki biror katta tabiiy ofat va falokat va h.k) eroniylarda "Mohi ro'z"( oy va kun) hisobi bo'lgan. Shu ifodani arabchalashtirib "muarrix" deganlar. Uning masdari qilib "tarix" chiqarilgan.2

Miloddan avvalgi Eron So'g'd va Xorazmda zardushtiylik kalendari ( taqvimi)dan foydalanilgan.Yil fasllaridagi har bir oyning o'z bayramlari va mashhur kunlari bo'lgan. Beruniy xorazmliklarning bayramlari haqida alohida to'xtalib, ular quyidagi bayramlarni o'tkazishga odatlanishganini ta'kidlaydi. Navsarji oyida yilboshi -Navro'z; H-r-v-dod oyiningn birinchi kuni – Arijosuvon (issiq kiyimdan chiqish, ochilish hayiti ); Chiri oyining 15-kuni – Ajg'or( kuz oxirida olovda isinish hayiti); Umri oyining birinchi kuni – Azdokand xvor (sovuq tushushi bilan olov yoqilgan uylarda o'choqlar atrofida yig'ilib, yog'liq non yopish kuni) va hakozo bayramlar.

"Osorul boqiya" kitobida bir necha maxsus jadvallar bor. Beruniy bu jadvallarda turli xalqlarning e'tiqodiga ko'ra odam yashay boshlagan davr tarixi, ayrim hukmdorlarining hukmdorlik yillari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiradi. Beruniy maxsus jadvalda turli mamlakat hukmdorlarining qanday atalganliklarini xabar qiladi.Eron podshohlari shahanshoh va Kisro deb, Rum podshohlari Basili ya'ni Qaysar, Iskandariya podshohlari Batlimus deb atalganlar, hazar va o'g'uz turklari o'z podshohlarini Xonuvta deganlar deydi.3

---

[1] А.Р.Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. т..1. Тош. "Фан". 1968, 40-бет.
[2] Ўша асар.
[3] Қаюмов А.. Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино. Тошкент. 1987й, 19-бет.

Abu Rayhon Beruniyning o’z vatani Xorazm tarixiga oid ma’lumotlarga alohida ahamiyat berishi tabiiy edi.Beruniy ushbu asarida Xorazm tarixi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi:

“Xorazmliklar ham shunday yo’l tutdilar. Ular Xorazm odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan to’qqiz yuz sakson yil ilgari bo’lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix odilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko’chib, turk podshohlari hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqyea Xorazmga odam joylashishidan to’qson ikki yil keyin edi.

So’ngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning(xorazm) shohlari deb ataluvchi naslidanbo’lgan har bir( podshoh davrining boshlanishidan ) tarix oldilar. Nihoyat Kayxusrav naslidan Ofrig’ podshohligi boshlandi. Eronliklar “gunohkor” Yazdijardni yomon xabar keltiruvchiga yo’yganlaridek, (xorazmliklar) Ofrig’ni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig’dan keyin uning o’g’li podshog’ bo’ldi. (Ofrig’) Iskandar tarixining olti yuz o’n oltinchi yilida al-Fir ustiga o’z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Ofrig’ va uning avlodi podshohligidan tarix oldilar.

Al-Fir Xorazm shahrining chekkasidagi loy va xom g’ishtdan qurilgan qal’a bo’lib, bir-birning ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo’rg’on edi. Bu barcha qo’rg’onlar tepasida Yamandagi G’umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi.

G’umdon-tabbalarning turar joylari bo’lib, San’a shahridagi Masjidi jome ro’parasidagitoshdan qurilgan qal’adir. Aytilishicha, u to’fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolardandir. Som qazigan quduq ham o’sha yerdadir. Ba’zilar esa, bu Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal,deganlar. Al-Fir o’n milcha va undan ko’proq masofadan ko’rinar edi. Jayhun har kuni uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat Iskadar tarixining ming uch yuz beshinchi yilida undan asar qolmadi.

Payg’ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamuh ibn Buzgor ibn Xomgariyibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmux ibn Saxxasak

ibn Bag'ra ibn Ofrig' podshoh edi. Xorazm aholisi (islom dinidan) qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Askajvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko'tardi. Xisravlar nasli qo'lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi.Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq,hijriy (yilga) ko'chirildi.

Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi.Shuning uchun (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi.Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo'lib, goho boshqa qabilalar qo'liga o'tib yurdi.Nihoyat Shahid Abu Abdullo Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdullo ibn Turkasbosa ibn Shovushfir ibn Askajmuk ibn Askajvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxdan –buning zamonida payg'ambar alayhissalomga payg'ambarlik kelganini aytib o'tdim- keyin viloyatlar ham shohlik ham ular(qo'li)dan chiqib ketdi".1

Beruniyning 1030 yilda yozgan "at - Tafhim" nomli asarining oltinchi bobida ham qadimgi Xorazmiylarning taqvim tizimi va bayramlari haqida qimmatli etnografik ma'lumotlar mavjud.

Abu Rayhon Beruniy G'azna shahrida yana bir yirik, qomusiy asarni yozadi. 1018-1025 yillar mobaynida yozib tugallangan asarining nomi "Aholi yashaydigan joylar orasidagi masofalarni aniqlash uchun(kerakli) o'rinlarning chegaralarini belgilash" bo'lib, fan olamida qisqartirilib "Geodeziya"deyiladi.2Yer o'lchash to'g'risida bayon etuvchi ushbu asarda Beruniy vatani bo'lmish Xorazm zaminining paydo bo'lishi to'g'risida hikoya qiladi: "Jayhun daryosi katta qoyalar orasidan o'tib bu yerda ko'l tashkil qilgan edi. Jayhun daryosining loyqasi ko'p, suvi mo'l, oqimi tez bo'lgan. Sekin sekin daryo mansabida yer paydo bo'la

[1] Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.Танланган асарлар. !-жилд.Т. "Фан",1968, 71-72 бетлар.

[2] "Геодезия"ни араб тилидан рус тилига П.Г.Булгаков таржима қилган.Бу таржимани 1966 йилда Тошкентдаги "Фан" нашриёти босиб чиқарган.

boshlagan. So’ng u yer bora –bora quruqlikka aylangan. Ko’l chekinib borib oxiri Xorazm yeri suv ostidan butunlay ochilagan”.1

O’rta asr tarixchilarining ma’lumotlariga ko’ra Abu Rayhon Beruniy o’z vatani Xorazm va uning tarixiga oid yana bir noyob asar yozgan. Ammo bu asar bizgacha yetib kelmagan.O’rta asrlarning XII asridayoq yo’qolib ketgan. “Xorazm tarixi” yoki “Kitob al musomara fi axbor Xorazm” (“Xorazm xabarlari xususida suhbatlar”) deb ataluvchi ushbu asarni Beruniyning zamondoshi va salafi tarixchi Abul Fazl Bayhaqiy (995-1077) o’zining “Tarixi Mas’udiy”kitobida 2 “Mushohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari ”) nomi bilan yuritadi. Arab olimi Yoqut ham Beruniyning shu asaridan parchalar keltirgan.

XIX acpning 60 yillarida Bayhaqiyning yuqorida tilga olingan asarining saqlanib qolgan “Tarixi Bayhaqiy” deb ataluvchi qismi nashr etiladi.3 Shundagina Beruniyning mazkur nomdagi asari mavjud bo’lganligilan dastlab Yevropa olimlari voqif bo’ldilar.

Bayhaqiy o’z asarini 1056 yilda Beruniy vafotidan sakkiz yil o’tgach yozishga kirishadi. Asar 30 jilddan iborat bo’lgan. Ammo bizgacha asarning ayrim jildlarigina yetib kelgan. Bayhaqiy asarni yilnoma tarzida yozgan.Bayhaqiy niyati bo’yicha, uchinchi jildning so’ngida biri Xorazm tarixiga, yana biri Ray shahri tarixiga oid bo’lgan ikki bob bo’lishi kerak edi. Xorazm to’g’risidagi bobning boshlanishida kitobxonga qarata Bayhaqiy shunday yozadi: “Mazkur tarixiy asarni yozishga kirishar ekanman, o’z ko’rganlarim yohud ishonchli odamlardan eshitganlarimni bitishga ahd qildim. Burunroq men ustod Abu Rayhon qalamiga mansub bir kitobni ko’rgan edim Ul zot suxandonlikda va hodisalar mohiyatini anglashda, jug’rofiya va falsafa fanida naziri yo’q kishi edi, zamonasida unga teng keladigan topilmas edi., u biror narsani o’ylamay yozmas

[1] Қаюмов А.. Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино. Т. “Ёш гвардия”,1987, 30-бет.
[2] “Тарихи Масъудий”китобининг форс тилидан рус тилига таржимасини А.К.Арендс амалга оширган. 1969йилда Тошкенда ЎзФАда чоп этилагн.
[3] The Tarikh Baihaki containing the of Masaud, son of Sultan Mahmud of Ghaznin … ed. by W.N.Morley,Calcutta, 1861-1862.

edi. Bu tafsilotlarni men mazkur tarixni yozishda qanchalik ehtiyotkorlik bilan ish ko'rganimni oydinlashtirish uchun yozmoqdaman". 1

Abu Rayhon Beruniyning "Xorazm tarixi" kitobidan olingan bir sahifada Amudaryo va Xorazm vohasining paydo bo'lishi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.(Yuqorida Beruniy o'zining "Geodeziya" kitobida ham bu haqda ma'lumot berganligini aytgan edik.) Bu sahifa rus sharqshunos olimi S.Volin tomonidan rus tiliga o'girilgan va V.D.I.ning 1941 yil 1-soni 192-195 betlarida e'lon qilingan.

Beruniy shunday xabar beradi:

"U ( Jurjon va Xorazm o'rtasidagi qum sahrosi) bir vaqtlarda ko'l bo'lgan bo'lsa kerak,chunki Jayhun-men Balx daryosini aytmoqchiman – u orqali Xazar (Kaspiy –Ya.G'.) dengiziga Balxan deb atalgan shahar yaqinidan oqib borgan. Uning oqimi haqida o'zining "Geografiya" kitobida Ptolomey ham shunday deydi, daryo Irqoniya (Jurjon) ya'ni Jurjon dengiziga oqib boradi.Bizning vaqtimiz bilan Ptolomey o'rtasida taxminan 800 yil vaqt o'tgan.Jayhun u vaqtda hozir sahro bo'lib yotganZamm (Karki) bilan Amuya (Chorjo'y) o'rtasidagi joylarni kesib o'tgan, Balxanga yetib borguncha o'z yo'lida uchragan shahar va qishloqlarni sug'organ va Jurjon hamda Xazar o'rtasida dengizga borib quyilgan. Yo'lida to'siqlar paydo bo'lganligi uchun uning suvi g'uzlar mamlakati chekkalariga qarab burilgan.Uning yo'lida tog' uchragan. Bu tog'ni hozir Famm-al-asad (dahani sher) deb, Xorazmaholisi uni Sakr ash Shayton (Shayton to'g'oni) deb ataydi.U (suv) to'planadi va qirg'oqlaridan toshib chiqadi, suv toshqinlarining izlari uning (tog'ning) tepasida saqlanib qolgan.U (suv) og'irlik va bosim chegarasidan o'tgach, bu omonat toshlar ustiga chiqqandan keyin ular orasidan yorib o'tgan va taxminan Duldul otlagandan Tuyamo'yingacha bo'lgan bir kunlik yo'l masofasini (45km) bosib o'tgan, so'ngra o'nga Forobga hozir Fahmi nomi ostida mashhur bo'lgan o'zan bo'ylab oqqan va odamlar uning qirg'og'ida uch yuzta shahar va qishloqlar qurganlar, ularning xarobalari hozirda ham saqlanib qolgan.Bu o'zanga ham, u boshlangandan keyin, birinchi o'zandagidek (Kelif O'zboyiga) to'siq

[1] Байҳақи А.Ф.. История Масъуда. Перевод с персидского А.К.Арендса. Уз АН 1969, 807-817бнтлар.

uchragan; suvning yo’li to’silib, u chapga burilgan va “Mazdubast” ismli o’zanda Xorazm va Jurjon o’rtasida sahrodan o’tib, bijnoqlar yeriga oqib borgan. U ko’p joylarni bosib ketgan va ularni uzoq vaqtlargacha xonavayron ham qilgan; ulaning aholisi Xazar dengizi bo’yiga ko’chib ketgan. Bular Olan va Os urug’lari bo’lib, hozir ularning tili Xorazm tili bilan Bijnoq tili aralashmasidan iborat. Xorazm tarafiga suv qoldiqlari oqar va qoyalar bilan to’silgan Xorazm tekisligi boshlangan joy(ya’ni Xorazm vohasi) yaqinidagi qoyalarni (Tuyamo’yin-Ya.G’) yorib o’tar edi,endi esa butun suv Xorazm tomoniga yo’l oldi. U ularni (qoyalarni) yorib o’tdi, atrofni suv bosdi va bu yer o’sha joydan boshlab ko’lga aylandi. Suvning ko’pligidan va oqim kuchining zo’rligidan u (Jayhun) ko’p miqdorda loyqa oqizgani uchun bo’tana edi.O’zani kengaygan joylarda u o’zidagi loyqani cho’ktirardi; quyilish joyidan (boshlab) yer asta-sekin qotar va qurib qolar, ko’l (shimolga) chekinar edi, shunday qilib butun Xorazm vujudga keldi.

Ko’l chekina chekina nisbatan ko’ndalang yotgan tog’larga boib taqaldi.(Ustyurt qirg’oqlaribo’lsa kerak-Ya.G’.); Ular bilan kurasha olmay u shimolga qarab burildi va hozir turkmanlar yashaydigan yerlargacha borib yetdi. Bu ko’l (ya’ni Orol dengizi) bilan Mazdubast daryosi yaqinida bo’lgan ko’l (Beruniy sariqamish chuqurligini nazarda tutadi, uning fikricha, qadim zamonlarda Mazdubast daryosining sha chuqurlikka borib tushgan-Ya.G’.) bir-biridan uzoq emas, u ko’l esa(Sariqamish) sho’r va iflos bo’lib qolgan, u orqali yuzib o’tib bo’lmaydi; turkcha u Xiz-tengizi,ya’ni “Iffatli qiz dengizi” deb ataladi”1.

Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari ichida eng yiriklaridan yana biri uning “Hindiston” asaridir.Hind olimlari, ayniqsa Jovaharlel Neru Beruniyning ushbu kitobiga juda yuqori baho bergan. Sharqshunos olim V.Rozen Beruniyning “Hindiston” asarini Sharq va G’arbdagi qadimgi va o’rta asr kitoblari orasida tengi yo’q asar,-deb baholagani bejis emas.Nemis sharqshunos olimi Eduard Zaxau Beruniyni “U arab adabiyoti okeanida yagona qoyadir. Hindistonshunoslikda Beruniyga teng keladigan kishini na ilgari va na so’nggi vaqtlarda o’tganini bilmaymiz”, deya e’tirof etgan.

[1] Я.Ғ.Ғуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.Т. “Фан”, 1959, 26-27-бетлар.

Beruniy mamlakat taraqqiyoti ilm-fanning ravnaqiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini yaxshi tushungan. Shu sababli butun hayoti davomida ilm-fan tadqiqotlari bilan shug'ullanar ekan, ayni vaqtda bu sohadagi ilg'or g'oyalarni keng targ'ib qilishga ham alohida e'tibor bergan. U o'zining "Hindiston" asarida bu haqda "Mening fikru yodim, butun qalbim ilm-fanni targ'ib qilishga qaratilgan. Men bilim orttirishdek lazzatdan bahramand bo'ldim, buni men ulkan baxt deb hisoblayman", deb ta'kidlagan edi.1

[1] А.Р.Беруний. Танланган асарлар. 2-том. Тошкент. 1963й, 21-бет.

## Xulosa

Buyuk ajdodarimiz o'z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizasiyasiga munosib hissa qo'shganlar. Sharq va G'arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg'unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Osiyoning ilm-fan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo'lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e'tibor qaratganlar.

Xulosa qilib aytganda, bugun xalqlarning bir-biri bilan bo'lgan aloqalarini ularning madaniy qadriyatlarini, buyuk mutafakkirlari ma'naviy merosini o'rganishchalik tez yaqinlashtira olmaydi.

O'zbekistonning dunyodagi davlatlar bilan madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohada hamkorlik istiqbollari ulkan. Zero, xalqlar bir-birining tarixi, madaniyati va ma'naviyatini yaxshi bilsa, davlatlar o'rtasida hamkorlik ham shuncha mustahkam bo'ladi.

«Qonuni Ma'sudiy» Beruniyning eng yirik astronomik asaridir XIII asrning mashhur tarixchisi Yoqut Hamaviyning aytishicha, bu asar (Beruniydan) avval astronomiya va matematika sohasida yozilgan barcha asarlardan ustun bo'lgan. Ibn al-qiftiy, Abo'l Fido kabi yirik olimlar ham Beruniy kitobini shu sohadagi asarlari ichida birinchi o'ringa qo'yganlar

Abu Rayhon Beruniy yuqoridagi asarlaridan tashqari tarix fani haqida yana juda ko'p asarlar yozgan bo'lib, “Oq kiyimlilar va karmatlarning xabarlari haqida kitob”, “Foydali savollar va to'g'ri javoblar”, “Yillarni chiqarishdagi farqlar haqida”, “Tarixni o'rinsiz so'zlardan tozalash” kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlarda Beruniy tarixchi sifatida tarixni haqqoniy tasvirlashni, barcha xalqlarga birdek hurmat bilan qarashni, ayrim kishi va xalqlarning tarixiy xizmatlariga to'g'ri baho berishni. O'rganilayotgan voqyea sari intiluvchi, etnografiya sohalarini taqqoslab, turli xalqlardagi fanlar haqida aniq va to'liq xulosa chiqara oluvchi bo'lishi kerak, -deydigan talablarni qo'yadi. Beruniy manbalarni o'rganishda vazminlik va bilimdonlik bilan, tanqidiy aql-mulohaza uslubi asosida ish ko'radi.

Shunday qilib, Beruniyning «Qonuni Ma’sudiy» asaridagi astronomik g’oyalar-Ziji Go’ragoniy orqali Yevropa astronomlariga ta’sir ko’rsatdi.

Shunday qilib, Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» medisina tarixida naqadar muhim rol o’ynagan bo’lsa, Abu Rayxon Beruniyning «Qonuni Ma’sudiy» asari ham astronomiya tarixida shunchalik ulkan ahamiyatga ega bo’ladi. Bir zamonda yashagan va bir-birovlarini yaxshi bilgan bu ikki ulug’ zot medisina va astronomiya fanlarining o’sha vaqtga qadar qo’lga kiritgan barcha yutuqlarining «qaymog’i»ni jamlab unga yakun yasabgina qolmay, o’zlarining uzoq yillik nazariy va amaliy tadqiqotlariga tayangan holda bu ikki fan sohasini shunday katta yutuqlar bilan boyitdilarki, anna shu yutuqlar har ikki «qonun»ning asrlar osha yashashini qonuniy bir hodisa qilib qo’ydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniyning  asarlari va kashfiyotlari eng qimmatli ,tengi yo’q, , nodir manbalar hisoblanadi. Boshqa fan sohalari kabi Beruniyning tarix va tarixshunoslik fanlarida tutgan o’rni beqiyos. Taniqli olim S.P.Tolstov ta’kidlaganidek, “Beruniy ilk o’rta asr olimlarining buyugidir... Qadimgi Sharqning eng porloq madaniyatidan biri bo’lgan Xorazm madaniyatining ming yillik tarixi unda mujassamlashgan”.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo’lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o’ziga xos yangi g’oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo’shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo’lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas.

## Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Каримов И.А. “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқ. Халқ сўзи, 2014 йил 16 май.

2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги Халқаро Конференциянинг очилиш маросимидаги нутқини Олий таълим муассасаларида ўрганиш бўйича ўқув қўлланма., Т., 2014.

5. Абдуллаев И.. «Беруний ва унинг «Кадимги халқларданкрлган ёдгорликлари» асари. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд,Т., 1968.

6. Абдураҳмонов А. Саодатга элтувчи билим. I-II китоб. -Т.:Мовароуннаҳр.2003.

7. Аҳмедов А. Аҳмад Ал -Фарғоний. -Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1998.

8. Беруний А.Р. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А-Бешбалиқ. Таҳрир ҳайъати: М. Аминов, Б. Аҳмедов, Ҳ. Бобоев ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – 736 б.

9. Абу Райҳон Беруний. Қонуни Масъудий. I қисм. 1-5 мақолалар. А.Расулов таржимаси. -Т.: Фан.1973.

10. Абу Райҳон Беруний. Қонуни Масъудий. II қисм. 6-11 мақолалар. А.Расулов таржимаси. -Т.: Фан.1976.

11. Беруний А.Р. Феруза: (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоялар). – Т.: А. Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашр. – 1993. – 94 б.

12. Беруний А.Р. 100 ҳикмат: ибратли сўзлар. – Т.: Фан, 1993. – 20 б.

13. Беруний, Абу Райхрн. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Беруний А.Р. Танланган асарлар. I том. Т., 1968.

14. Беруний, Абу Райҳон. Қонуни Масъудий // Беруний А.Р. Танланган асарлар. V том. Т., 1973.

15. Беруний, Абу Райҳон. Ҳиндистон // Беруний А.Р. Танланган асарлар. II том. Т., 1968.

16. Беруний, Абу Райхан. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). (Перевод: А.М. Беленицкого. Под редакция проф. Г.Г. Леммлейна, проф. Х.К. Баранова и А.А. Долининой. Статьи и примечания А.М.Беленицкого и Г.Г. Леммлейна). Ленинград., 1963 г.

17. Зиёдов Ш. Ал-Мотуридий ҳаёти вамероси. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.

18. Зоҳидов Қ., Маҳмуд М. Ислом маданияти демократи-яга зид эмас // «Гулистон» журнали, 2000, №6.

19. Имом ал-Бухорий. ал-Адаб ал-муфрад. Т., «Ўзбекистон», 1990.

20. Каримов Ш., Р.Шамсутдинов.Ватан тарихи. Т.”Ўқитувчи2.1997.

21. Исҳоқов М.М. Халқ даҳосининг қадимги илдизлари ва илк куртаклари (Зардуштийлик, Зардушт ва Авесто ҳақида) // «Тил ва адабиёт таълими» журнали, № 2 (1992).

22. Ивановский М. Вчера, сегодня, завтра. -Л., 1958.

23. Идельсон Н.И. История календаря // Этюды по небесной механике.-М.: Наука. 1976.

24. Исмоилова Ю. Ат -Табарий вақт ўлчови тартиблар ҳақида // Шарқшунослик. 1992.№3.

25. Кароматов Ҳ.С. Курьон ва ўзбек адабиёти. Т., «Фан», 1993.

26. МамадазимовМ., Илёсов С. Маликшоҳ эраси // Фан ва турмуш. 2004. №4 -5. 43 б.

27. Файзуллаев О.. «Абу Райх.он Берунийнинг «Қаимги Юищлардан колган ёдгорликлар» асаридаги баъзи масалалар ҳакида. А. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, Т., «Фан», 1968, 24-бетлар.

28. Ўрта асрлар Шарқининг машҳур олим ва мутафаккирлари: китоб-альбом. Ш.Салиҳов ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 156 б.

29. Ғаззолий, Муҳаммад Абу Хомид. Иҳйо-ул-улум / Арабчадан А. Мансуртаржимаси // Камалак. Адабий-танқидий йиллик тўплам. Т., «Ёш гвардия», 1990.

30. Қаюмов А.. Абу Райҳон Беруний .Абу Али ибн Сино. Тошкент.1987йил.